



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA SUBSTANTIVATSIYA HODISASINING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

G‘afforova Nigora Abdunosirovna

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, tayanch doktorant

Annotatsiya

Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillarida substantivatsiya hodisasi, uning semantik va morfologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida sifat va fe‘l shakllarining otlashuvi, uzual va okkazonal substantivatsiya masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: substantivatsiya, ingliz tili, o‘zbek tili, semantika, morfologiya, konversiya, otlashuv, derivatsiya, uzual substantivatsiya, okkazonal substantivatsiya.

СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ СУБСТАНТИВАЦИИ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Гаффорова Нигора Абдуносировна

Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы, базовый докторант

Аннотация

В статье анализируются семантические и морфологические особенности субстантивации в английском и узбекском языках. Особое внимание уделяется переходу прилагательных и глаголов в существительные.

Ключевые слова: субстантивация, английский язык, узбекский язык, семантика, морфология, конверсия.

SEMANTIC FEATURES OF SUBSTANTIVATION IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

G‘afforova Nigora Abdunosirovna

Tashkent State University of Uzbek Language and Literature, Doctoral Student

Abstract

This article analyzes semantic and morphological features of substantivation in English and Uzbek languages. The study focuses on the substantivation of adjectives and verbs as well as usual and occasional substantivation.

Keywords: substantivation, English language, Uzbek language, semantics, morphology, conversion.

Tilshunoslikda substantivatsiya hodisasi so‘z turkumlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni ifodalovchi muhim lingvistik jarayonlardan biri hisoblanadi. Ushbu hodisa natijasida sifat, fe‘l yoki boshqa grammatik birliklar ot vazifasini bajarishga o‘tadi. Natijada tilning leksik boyligi ortadi va yangi nominativ birliklar shakllanadi.

Ingliz va o‘zbek tillarida substantivatsiya hodisasi faol uchraydi. Har ikki til turli tipologik tizimga mansub bo‘lsa-da, substantivatsiya ularning grammatik va semantik tizimida muhim o‘rin egallaydi. Ingliz tili analitik til hisoblanganligi sababli substantivatsiya ko‘pincha konversiya orqali amalga oshadi. O‘zbek tilida esa affiksatsiya va sintaktik vositalar bilan bir qatorda kontekstual omillar ham muhim rol o‘ynaydi.

Ingliz tilida substantivatsiya jarayonining eng keng tarqalgan shakli sifatlarning otlashuvi hisoblanadi. Masalan, “the rich”, “the poor”, “the young”, “the elderly” kabi birliklarda sifatlarning butun bir ijtimoiy qatlam yoki insonlar guruhini ifodalab keladi [2; 45-b.]. Bu holatda artikl substantivatsiyaning grammatik ko‘rsatkichi vazifasini bajaradi.

O‘zbek tilida ham sifatlarning otlashuvi keng tarqalgan. Masalan, “yaxshi”, “kambag‘al”, “boy”, “keksa” kabi birliklar kontekstga qarab ot vazifasida qo‘llanadi. “Yaxshiga yondash”, “Keksaga hurmat ko‘rsat” kabi gaplarda sifatlarning insonni ifodalovchi substantivat sifatida namoyon bo‘ladi.

Fe‘l shakllarining substantivatsiyasi ingliz tilida ayniqsa faol hisoblanadi. “Reading”, “meeting”, “building”, “learning” kabi birliklar dastlab gerundiy yoki fe‘l shakli bo‘lsa-da, keyinchalik predmet yoki jarayon nomini ifodalovchi otlarga aylangan [3; 51-b.]. O‘zbek tilida esa harakat nomlari orqali substantivatsiya yuz beradi. Masalan, “o‘qish”, “yozish”, “izlanish” kabi birliklar ham harakat, ham ot

ma'nosini anglatishi mumkin.

Substantivatsiya hodisasi tilshunoslikda so'z turkumlari o'rtasidagi o'zaro munosabat, ularning funksional almashinuvi hamda grammatik-semantik o'zgarishlarini ko'rsatuvchi muhim jarayonlardan biri hisoblanadi. Bu hodisa, odatda, uzual va okkazional turlarga ajratiladi. Uzual substantivatsiya til tizimida mustahkamlangan, umumxalq nutqida faol qo'llanadigan va lug'at tarkibiga kirgan birliklarni ifodalaydi. Bunday birliklar dastlab boshqa so'z turkumiga mansub bo'lgan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan otga xos grammatik va semantik belgilarni qabul qiladi hamda mustaqil leksik birlik sifatida ishlatila boshlaydi. Okkazional substantivatsiya esa nutq jarayonida vaqtinchalik yuzaga keladigan, muayyan kontekst bilan bog'liq individual holatlarni bildiradi [4; 58-b.]. Bunday birliklar odatda muallifning uslubiy maqsadi, obraz yaratish ehtiyoji yoki nutqiy vaziyat talabi asosida shakllanadi.

Ingliz tilida uzual substantivatsiyaga "a native", "a relative", "a criminal" kabi birliklarni misol qilish mumkin. Ushbu so'zlar tarixan sifat yoki boshqa grammatik shakl bilan bog'liq bo'lgan bo'lsa-da, hozirgi ingliz tilida ular to'liq ot sifatida faol qo'llanadi. Masalan, "a native" — mahalliy kishi, "a relative" — qarindosh, "a criminal" — jinoyatchi ma'nolarini anglatadi. Bu birliklar artikl bilan ishlatilishi, ko'plik shaklini qabul qilishi va gapda ega, to'ldiruvchi yoki boshqa otga xos sintaktik vazifalarni bajarishi bilan to'liq substantivatsiyalashganini ko'rsatadi. O'zbek tilida esa "kasal", "yo'lovchi", "keksa", "yosh", "boy", "kambag'al" kabi birliklar substantivatsiyalashgan shakllar sifatida faol qo'llanadi. Masalan, "kasal keldi" gapida "kasal" so'zi ot vazifasida kelib, bemor inson ma'nosini bildiradi.

Substantivatsiyaning semantik jihati alohida ahamiyatga ega. Chunki substantivatsiyalashgan birlik o'zining dastlabki so'z turkumiga xos ayrim semantik komponentlarni saqlab qoladi, biroq yangi grammatik vazifa asosida qo'shimcha ma'no qatlamiga ega bo'ladi. Masalan, ingliz tilidagi "the blind" birligi "ko'zi ojiz insonlar" ma'nosini bildiradi. Bu yerda "blind" so'zi sifat sifatida "ko'r" ma'nosini saqlagan holda, artikl yordamida umumlashgan shaxslar guruhini ifodalovchi otlashgan birlikka aylanadi. Xuddi shuningdek, "the poor", "the rich", "the young", "the old" kabi birliklar ham ma'lum ijtimoiy, yosh yoki sifat belgisi asosida umumlashgan guruhni bildiradi. O'zbek tilidagi "kasal" birligi esa kontekstga qarab ham sifat, ham ot ma'nosida ishlatilishi mumkin. Masalan, "kasal bola" birikmasida u sifat, "kasal tuzaldi" gapida esa ot vazifasini bajaradi.

Hozirgi zamon tilshunosligida so'z turkumlari o'rtasidagi chegaralar ko'pincha qat'iy emas, balki nisbiy va harakatchan xarakterga ega ekani ta'kidlanadi. Til birliklari nutqiy vaziyatga, sintaktik qurilishga va semantik ehtiyojga qarab turli vazifalarni bajarishi mumkin. Ana shunday o'zgaruvchanlikni yaqqol ifodalovchi hodisalardan biri substantivatsiya jarayonidir. Bu jarayonda, ayniqsa, sifatlar otlarga xos grammatik tuzilma va ma'no xususiyatlarini qabul qilib, gap ichida ot vazifasida ishlatiladi. Natijada sifat belgi bildiruvchi birlik bo'lishdan tashqari, shu belgiga ega shaxs, predmet yoki guruhni anglatishga xizmat qiladi.

Ingliz tili analitik tuzilishga ega bo'lgani uchun bunday grammatik o'zgarishlar juda faol va keng tarqalgan hisoblanadi. Ingliz tilida so'z shaklining deyarli o'zgarishsizligi, grammatik ma'nolarning ko'pincha artikl, so'z tartibi va yordamchi vositalar orqali ifodalanishi substantivatsiya jarayonining qulay kechishiga imkon beradi. Masalan, "poor" so'zi sifat sifatida "kambag'al" ma'nosini bildirsa, "the poor" shaklida jamiyatdagi kambag'al kishilar qatlamini ifodalaydi. Bu holatda so'zning shakli saqlanib qoladi, biroq uning sintaktik vazifasi va semantik mazmuni kengayadi.

Substantivatsiya tilning tarixiy rivojlanishi hamda ichki tuzilishidagi o'zgarishlar bilan bevosita bog'liqdir. Til taraqqiyoti jarayonida ayrim so'zlar dastlabki grammatik maqomini yo'qotib yoki kengaytirib, yangi vazifalarda ishlatila boshlaydi. Bu jarayon tilning iqtisodiylik, ixchamlik va ifodaviylik tamoyillari bilan ham uzviy aloqadordir. Chunki substantivatsiya orqali nutqda ortiqcha birliklardan foydalanish kamayadi, ma'no esa qisqa va ta'sirchan shaklda ifodalanadi.

Sifatlarning otlashuvi masalasi O. Jespersen, R. Quirk kabi yirik tilshunoslar tomonidan chuqur tadqiq etilgan. Ularning qarashlarida substantivatsiya so'z turkumlari o'rtasidagi funksional o'tish jarayoni sifatida talqin qilinadi. Bu jarayon sintaktik va semantik sharoitlar ta'sirida yuzaga kelib, til birliklarining grammatik maqomi doimiy emasligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, substantivatsiya bir qator murakkab lingvistik masalalarni ham yuzaga keltiradi. Jumladan, otlashgan sifatlarni guruhlarga ajratish, ularning to'liq yoki qisman substantivatsiyalashganini aniqlash, artikllarning qo'llanishi, son kategoriyasiga munosabati hamda gapdagi sintaktik vazifasini belgilash kabi muammolar alohida ilmiy tahlilni talab qiladi.

Ingliz tilida substantivatsiyalashgan sifatlar turli semantik guruhlarga ajratilishi mumkin. Birinchi guruhga insonlarning ijtimoiy holati yoki mavqeini bildiruvchi birliklar kiradi: "the rich", "the poor", "the

unemployed”. Ikkinchi guruhga yosh xususiyatini bildiruvchi birliklar kiradi: “the young”, “the old”, “the elderly”. Uchinchi guruhga jismoniy yoki ruhiy holatni bildiruvchi birliklar mansub: “the blind”, “the deaf”, “the disabled”. To’rtinchi guruhga millat yoki etnik mansublikni ifodalovchi birliklar kiradi: “the English”, “the French”, “the Chinese”. Bu guruhlarning barchasida sifat o’zining belgi bildirish xususiyatini saqlagan holda, shu belgiga ega shaxslar majmuasini anglatadi.

O’zbek tilida ham substantivatsiya faol jarayonlardan biri bo’lib, u asosan kontekst orqali aniqlanadi. O’zbek tilida artikl mavjud bo’lmagani sababli so’zning otlashganini aniqlashda uning gapdagi sintaktik vazifasi, egalik, kelishik, ko’plik qo’shimchalarini qabul qilishi hamda boshqa so’zlar bilan munosabati muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, “yaxshi” so’zi “yaxshi odam” birikmasida sifat bo’lsa, “yaxshini yomon demang” gapida otlashgan birlik sifatida ishlatiladi. Shuningdek, “kattalar”, “yoshlar”, “bilimli”, “nodon”, “olim”, “kambag’al” kabi birliklar ham muayyan kontekstda ot vazifasini bajaradi.

Tilshunoslikda substantivatsiya iqtisodiylik tamoyili bilan ham izohlanadi. Nutq jarayonida ayrim komponentlarning tushib qolishi natijasida yangi substantivatlar yuzaga keladi. Masalan, “the rich people” birikmasida “people” komponenti tushib qolib, “the rich” shakli hosil bo’ladi. Bunda ma’no yo’qolmaydi, aksincha, ixcham va umumlashgan shaklda ifodalanadi. Xuddi shunday, o’zbek tilida ham “yaxshi odam” birikmasi o’rnida “yaxshi” so’zining mustaqil qo’llanishi kuzatiladi. Masalan, “Yaxshi bilan yursang, yetarsan murodga” maqolida “yaxshi” so’zi shaxs ma’nosini bildiruvchi substantivatsiyalashgan birlikdir.

Substantivatsiyaga uchragan so’z turkumlarini tahlil qilganda, ularning semantik tarkibida bir necha asosiy yo’nalish ajralib turadi. Bular shaxsni bildiruvchi substantivatlar, ijtimoiy qatlamni ifodalovchi birliklar, yosh va holatni bildiruvchi shakllar, millat yoki guruh nomini anglatuvchi birliklar, shuningdek, mavhum tushunchalarni ifodalovchi otlashgan shakllardir. Mazkur semantik guruhlar substantivatsiya jarayonining faqat grammatik hodisa emas, balki semantik va kommunikativ jihatdan ham murakkab til hodisasi ekanini ko’rsatadi. Substantivatsiyaga uchragan so’z turkumlarini tahlil qilganda quyidagi semantik sxema yuzaga keladi (1-rasm).



1-rasm. Substantivatsiyaning turlari va ularning semantik natijalari

Substantivatsiya tarjimashunoslik uchun ham muhim ahamiyatga ega. Chunki bir tildagi substantivatsiyalashgan birlik boshqa tilda aynan shu shaklda ifodalanmasligi mumkin. Tarjimon semantik moslikni saqlash uchun grammatik transformatsiyalardan foydalanadi.

Bugungi kunda substantivatsiya hodisasini korpus lingvistikasi asosida o’rganish keng

rivojlanmoqda. Elektron matnlar bazasi substantivatsiyalashgan birliklarning qo'llanish chastotasi va uslubiy xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

O'zbek tilida substantivatsiya asosan kontekst yordamida aniqlansa, ingliz tilida artikl va sintaktik qurilishlar bu jarayonning asosiy ko'rsatkichlari hisoblanadi. Shu sababli har ikki til substantivatsiyani ifodalashda turli grammatik vositalardan foydalanadi.

Substantivatsiya tilning leksik boyishini ta'minlaydigan muhim vositalardan biridir. Yangi substantivatlar paydo bo'lishi tilning nominativ imkoniyatlarini kengaytiradi hamda uslubiy rang-baranglikni kuchaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, ingliz va o'zbek tillarida substantivatsiya hodisasi semantik va grammatik jihatdan muhim lingvistik jarayon hisoblanadi. Ingliz tilida substantivatsiya ko'proq konversiya asosida yuz bersa, o'zbek tilida kontekst va affiksatsiya muhim rol o'ynaydi. Har ikki tilda substantivatsiya yangi leksik birliklarning shakllanishiga va nutqning boyishiga xizmat qiladi.

Substantivatsiya hodisasi transpozitsiyaning eng faol hamda mahsuldor shakllaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Funktsional tahlillar ushbu jarayonning faqat grammatik emas, balki semantik va uslubiy imkoniyatlarga ham ega ekanligini ko'rsatadi. Substantivatsiya natijasida til birliklari yangi predmetlik ma'nosini hosil qilib, nutqning mazmunan boyishi va ifoda vositalarining kengayishiga xizmat qiladi. Shu jihatdan mazkur hodisa har ikki tilning leksik va grammatik tizimida muhim ahamiyat kasb etadi hamda ularni funktsional nuqtayi nazardan chuqurroq tadqiq etish tilning ichki qonuniyatlarini kengroq anglash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Голубева А.Ю., Кравцов С.М. Субстантивация на основе глагольных словоформ как узуальный вид конверсии. – Ростов-на-Дону, 2015.
2. Смирнов Ю.С. О разграничении окказиональных и узуальных субстантивированных прилагательных. – СПб., 2006.
3. Виноградов В.В. Русский язык. Грамматическое учение о слове. – М.: Наука, 1986. – 640 с.
4. Реформатский А.А. Введение в языкознание. – М.: Аспект Пресс, 2004. – 536 с.
5. Гак В.Г. Теория французского языка. – М.: Добросвет, 2000. – 832 с.
6. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: Советская энциклопедия, 1969. – 608 с.
7. Кубрякова Е.С. Части речи в ономаσιологическом освещении. – М.: Наука, 1978. – 115 с.
8. Bally Ch. Linguistique générale et linguistique française. – Paris: Francke, 1965. – 440 p.
9. Бабайцева В.В. Переходные конструкции в синтаксисе. – М., 1967. – 392 с.
10. Курилович Е. Очерки по лингвистике. – М., 1982. – 192 с.